

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
USULLARI VA AFZALLIKLARI****Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li****Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Informatika va uni o'qitish metodikasi" kafedrası
o'qituvchisi****giyosjonshamsiddinov95@gmail.com Tel: 99-334-69-75****Ro'ziqulova Barchin Abdig'ani qizi****Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi
2- bosqich talabasi****Inatillayeva Laziza Ismoil qizi****Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi
2- bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.13968672>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot kommunikatsion texnologiyalari, ya'ni zamonaviy kompyuter texnologiyalari imkoniyatlaridan umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida foydalanishning usullari va afzalliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, kompyuter, samaradorlik, pedagogik mahorat, psixologiya, boshlang'ich ta'lim, elektron darslik.

Аннотация: В данной статье описаны методы и преимущества использования информационно-коммуникационных технологий, то есть возможностей современных компьютерных технологий, в начальных классах общеобразовательных школ.

Ключевые слова: информационные технологии, компьютер, эффективность, педагогическое мастерство, психология, начальное образование, электронный учебник.

Annotation: This article describes the methods and advantages of using information and communication technologies, that is, the possibilities of modern computer technologies, in primary school classes of general education schools.

Keywords: information technologies, computer, efficiency, pedagogical skills, psychology, primary education, electronic textbook.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'lim muassasalarining moddiy texnik va axborot bazasini mustahkamlash, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirish masalasi alohida qayd etilgan. Budan kelib chiqqan holda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish davr talabi hisoblanadi. Darslarni ilg'or

pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga o'rgatish, o'qitilayotgan fanni o'zlashtirish sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada boshlang'ich ta'limni o'qitishda ham turlicha uslublar qo'llanilmoqda. Shulardan biri zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida dars jarayonini tashkil etishda o'qituvchi dastlab:

- darsning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokamalar uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro aloqa usullari va kommunikatsiya singari omillarni aniqlab olishi lozim bo'ladi.

Axborot texnologiyalaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona tili darslarida savodxonlikni oshirish bo'yicha mashqlar yordam beradi, bunda bolalar kompyuterlarda turli xildagi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun turli didaktik materiallar to'plamidan foydalanib, ko'rgazmali mashq, nazorat mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin.

1-sinfda o'qish darsida elektron o'quv qo'llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so'zni tovushli-harfli tahlil qilish, so'zning bo'g'inlari tuzilishi, ba'zi orfogrammalar o'rganilishi turli qiziqarli ko'rgazmali va ovoqli material berish mumkin. Yorqin rasmlar, g'aroyib, qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o'quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi, o'yin shaklida o'quv materialini bilan tanishish imkonini beradi, o'zini nazorat qilish va o'quv refleksiya uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi.

Matematika darslarida «O'yinli masalalar» dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Boshlang'ich sinfda o'rganiladigan ko'plab mavzular bo'yicha turli materiallar berilgan. Turli murakkablik darajasidagi turli xildagi topshiriqlar har bir o'quvchining idrok etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istagan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalish, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Boshlang'ich sinflarda harakatlanishga animatsiyali masalalar bilan slayd-filmlarni qo'llash mumkin. Shunday slaydlarni yaratish uchun Internetdan olingan animatsion kartinkalardan foydalanish mumkin.

Barcha o'quv fanlarida test topshiriqlaridan foydalanish zarur. Testlardan dastlab faqat bosma ko'rinishidagisidan foydalangan bo'lsak, hozirda ularni kompyuterda terib, har bir o'quvchi bilan shug'ullanish mumkin. AKTdan foydalanish yillari davomida 1-sinf dan 3-sinf gacha matematika, badiiy o'qish, ona tili, deyarli barcha mavzulari va boshqa o'quv fanlari bo'yicha qator turli testlarni tayyorlash mumkin. Endi darslarda faqat bosma shakldagi emas, balki kompyuterli testlardan foydalanish zarur. Ular bajarib bo'lishi bilan darhol bahosini olishga

imkon beradi, bahoni kompyuterning o'zi taqdim etadi, u yoki bu mavzu bo'yicha kamchiliklarini aniqlashlariga imkon beradi.

Kompyuter texnologiyalari turli xil interaktiv xarakterdagi topshiriqlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Masalan, o'quvchilar voqealarni xronologik ketmaketlikda joylashtirish, fanga oid atamalar va tushunchalarni to'g'ri izohlash yoki o'ng va chap qatordagi atamalar va ularning ma'nosini mos ravishda strelka bilan ko'rsatish yoki berilayotgan mavzudagi tayanch so'zlarni to'ldirish, test topshiriqlarini bajarish, krosvordlarni yechish kabi topshiriqlarni qanday ajarganliklarini katta ekranda multimedia yordamida tushirilgan javoblar bilan taqqoslab, bilib borishlari mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalansa, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi, bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi va o'ziga bo'lgan ishonchi ortib, mustaqil fikri rivojlana boradi. O'qituvchi esa darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga oson erishadi. Faqatgina o'quv jarayonida axborot texnologiyalari darsning asosiy tayanchi emas, balki bolaga yangi ma'lumotlarni, tushunchalarni osonlik bilan yetkazib berish hamda esda saqlashiga yordam beruvchi vosita sifatida qaralishi lozim. O'qituvchi esa darsning asosiy boshqaruvchisidir.

References:

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2012 Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008.
2. Shamsiddinov, G'iyosjon, Umida Nurmaxmatova, and Durдона Turayeva. "INFORMATIKA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM JARAYONIDAGI O'RNI." Science and innovation in the education system 3.4 (2024): 102-105.
3. Shamsiddinov, G'iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Durдона Turayeva. "GLOBAL IQLIM O 'ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI SAQLASHNING ZAMONAVIY, INNOVATSION USULLARI." Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 3.3 (2024): 103-106.
4. Shamsiddinov, G'iyosjon, Jasmina Murodulloyeva, and Umida Nurmaxmatova. "YASHIL IQTISODIYOT VA YO 'NALISHLARI BO 'YICHA TA'LIM DASTURLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI." Models and methods in modern science 3.5 (2024): 44-49.
5. Shamsiddinov, G'iyosjon, and Gulandom Raxmatova. "O 'ZBEKISTONDA AXBOROT HAVFSIZLIGINI MA'NAVIY VA HUQUQIY ASOSLARI." Solution of social problems in management and economy 3.4 (2024): 45-57.